


Dastlabki ma'lumotlar

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Zamonaviy iqtisodiyotda xizmatlar sohasining o'rni, mazkur sohada iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalarga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 8 786,1 mldr. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 1 143,7 mldr. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,2 % ni tashkil etdi.



O'sish sur'ati	• 104,2 %
Hajmnning o'sishi	• 1 143,7 mldr. so'mga
Xizmatlar hajmi	• 8 786,1 mldr. so'm

Xizmatlar – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayriboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari
(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	8 786 104,6	104,3
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	371 349,0	104,1
Moliyaviy xizmatlar	1 462 236,0	140,1
Transport xizmatlari	2 007 580,1	101,3
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>1 899 988,6</i>	<i>103,2</i>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	360 805,2	81,9
Savdo xizmatlari	2 797 721,6	100,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	221 483,6	94,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	532 772,5	109,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	138 339,2	83,7
Ijara xizmatlari	214 954,4	97,6
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	171 562,3	99,1
Shaxsiy xizmatlar	169 982,0	91,9
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	90 053,8	71,9
Boshqa xizmatlar	247 264,9	95,7

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning ulushi 31,8 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (22,9 %), moliyaviy xizmatlar (16,6 %), ta'lif sohasidagi xizmatlar bo'yicha (6,1 %) qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning tarkibi (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)

Eng yuqori ulush



Eng past ulush



	Savdo xizmatlari	31,8 % 32,2 %		Boshqa xizmatlar	2,8 % 3,0 %
	Transport xizmatlari	22,9 % 23,5 %		Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	2,5 % 2,8 %
	Moliyaviy xizmatlar	16,6 % 13,5 %		Ijara xizmatlar	2,5 % 2,6 %
	Ta'lif sohasidagi xizmatlar	6,1 % 5,6 %		Kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari	2,0 % 2,1 %
	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	4,2 % 4,5 %		Shaxsiy xizmatla	1,9 % 2,1 %
	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	4,1 % 4,8 %		Sog'lijni saqlash sohasi xizmatlari	1,6 % 1,8 %
	Yanvar-noyabr 2019- y.			Me'morchilik sohasi xizmatlari	1,0 % 1,5 %
	Yanvar-noyabr 2020- y.				


Me'morchilik sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'Imagan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,0 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nisbatan yuqori bo'Imagan ulush sog'lijni saqlash

Dastlabki ma'lumotlar

bo'yicha xizmatlar - 1,6 %, shaxsiy xizmatlar - 1,9 %, kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari hissasi 2,0 % ga to'g'ri keldi.

Yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (40,1 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (9,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (4,1 %), shuningdek transport xizmatlari (1,3 %) shuningdek, savdo xizmatlarida (0,1 %) qayd etildi. Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmogda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi





Dastlabki ma'lumotlar

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi hajmi sezilarli darajada (28,1 % ga) pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, yashash va ovqatlanish xizmatlari (18,1 % ga), sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar (16,3 % ga), shaxsiy xizmatlar (8,1 % ga), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (6,0 % ga), boshqa xizmatlar (4,3 % ga), ijara xizmatlari (2,4 % ga), shuningdek kompyuterlarni ta'mirlash sohasidagi xizmatlar (0,9 % ga) da pasayish kuzatildi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rinn tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

Dastlabki ma'lumotlar

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi savdo xizmatlarining ulushi 31,8 % ni tashkil etib, bu 2 797,7 mld. so'mga teng bo'ldi.

**Savdo xizmatlari tarkibi, % da
(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)**

Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiylajmi savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uch qismiga, aniqrog'i 79,7 % iga to'g'ri keladi.

Ilgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllarning savdosidan tashqari) 14,7 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosidan tashqari bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiylajmi hajmidagi ulushi 5,6 % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)

Moliyaviy xizmatlar hajmi 1462,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning hajmi 1034,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi.



Ularning umumiyligi xizmatlar hajmidagi ulushi 16,6 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning ulushi 13,5 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini 427,9 mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.



Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 40,1 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning o'sish sur'ati 170,0 % ga yetgan.

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari




2020-yilning yanvar- noyabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 371,3 mld. so'm darajasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagи xizmatlarning o'sish sur'ati 104,1 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmdagi ulushi 4,2 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi



2020-yil yanvar-noyabr

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 95,9 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushida noshirlik xizmatlari - 1,7 %, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 1,0 %, boshqa aloqa xizmatlari - 1,0 %, axborot sohasidagi xizmatlar - 0,4 %, ni tashkil etdi.


Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

2020-yilning yanvar-noyabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 532,8 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi 6,1 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,0 % ni tashkil etdi.



**Shahar va tumanlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlarning hajmi, mlrd. so'm
(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)**



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning yuqori hajmi G`iduvon (34 187,7 mln. so'm), Buxoro (14 047,9 mln. so'm), Jondor (11 419,9 mln. so'm) va Romitan (9 223,1 mln. so'm) tumanlarida, hamda Buxoro shahrida (411 564,3 mln. so'm) qayd etildi.


Nisbatan past ko'rsatkichlar Qorovulbozor (2 495,2 mln. so'm), Olot (5 633,4 mln. so'm), Peshko` (6 728,7 mln. so'm) Qorako'l (6 795,4 mln. so'm) tumanlarida va Kogon sh. (6 460,1 mln. so'm) belgilandi.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 81,9 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 360,8 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi atigi 4,1 % ni tashkil etdi.



2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan turar joy va umumiyligi ovqatlanish xizmatlari hajmi 5,1 mlrd. so'mga kamaydi.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyligi hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi - 85,0 % bilan ustunlik qiladi.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 15,0 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)


2020- yilning yanvar-noyabr oylarida sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 138,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Xizmatlar umumiyo'chida ularning ulushi 1,6 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 83,7 % ni tashkil etdi.


Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlarning umumiyo'chida shahar va tumanlar ulushini taqqoslanishi, % da



Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlarning umumi hajmida Buxoro shahrining ulushi yuqori - 49,9 %. Shu bilan birga, nisbatan yuqori ulush G`ijduvon (10,8 %), Buxoro (8,0 %) tumalarida va Kogon shahrida (5,3 %) qayd etildi.

Joriy davrda ushbu ko'rsatkichning ulushi nisbatan katta bo'Imagan tumanlar Qorovulbozor (0,9 %), Kogon (1,8 %), Olot (2,9 %), Peshko` (2,9 %) Shofirkon (3,0 %) shuningdek, Jondor (3,2 %) hissasiga to'g'ri keladi.

Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)



Xizmatlarning umumi hajmida Buxoro shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 46,4 % ni tashkil etadi. Bu aholining real daromadlari boshqa tumanlardan ko'ra yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, eng katta ulush G`ijduvon (11,9 %), Buxoro (4,8 %), Romitan (4,5 %) va Peshko` (4,5 %) tumalarida qayd etildi.

Xizmatlar sohasining nisbatan past ko'rsatkichlari Qorovulbozor (1,5 %), Kogon (3,2 %), Olot (3,4 %), Shofirkon (3,7 %) tumanlari va Kogon shahrida (3,4 %) kuzatildi.


Ma'lumot uchun: 2019- yilning yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida Buxoro shahrining ulushi 44,4 % ni tashkil etgan.

Qorovulbozor tumanining ulushi esa eng past ekanligi - 1,7 % kuzatilgan.

Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)

Ushbu davr mobaynida nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Kogon (102,4 %), Olot (101,7 %), Qorako'l (101,5 %), Buxoro (101,3 %) tumanlarida va Buxoro shahrida (109,0 %) qayd etildi.

Nisbatan yuqori bo'limgan o'sish Jondor (100,1), Vobkent (100,2 %), Shofirkon (100,5 %), Romitan (100,7 %) tumanlarida va Kogon shahrida (100,1 %) qayd etildi.



Ko'rileyotgan davrda, resurslardan samarali foydalanish natijasida hududlar bo'yicha Buxoro shahri ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu hududda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 682 736,2 mln. so'mga oshdi va 4 072 675,9 mln. so'mga yetdi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning
asosiy ko'rsatkichlari
(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)**

	Hajmi, mln. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da	
		2019- y.	2018- y.

Buxoro viloyati *	8 786 104,6	104,3	111,3
Olot	301 280,9	101,7	107,9
Buxoro	420 949,3	101,3	107,9
Vobkent	395 492,1	100,2	108,4
G'ijduvon	1 042 828,4	100,9	108,2
Jondor	371 454,9	100,1	108,2
Kogon	280 256,5	102,4	110,2
Qorako'l	351 863,2	101,5	106,6
Qorovulbozor	132 031,3	92,0	100,0
Peshko'	395 250,5	100,6	108,1
Romitan	398 817,9	100,7	106,8
Shofirkon	325 599,8	100,5	108,1
shaharlar:			
Buxoro shahri	4 072 675,9	109,0	114,0
Kogon shahri	297 603,9	100,1	106,9

* hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmlarni qo'shgan holda

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar G`ijduvon (1 042 828,4 mln. so'm), Buxoro (420 949,3 mln. so'm), Romitan (398 817,9 mln. so'm) va Vobkent (395 492,1 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Ma'lumki, zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020-yilning yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4 548,1 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,9 % ni tashkil etdi.


Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar haimi – 4 548,1 ming so'm

O'sish sur'ati, 2019-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan – 102,9 %

Hajmning o'sishi, 2019-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan – 537,2 ming so'mga

Dastlabki ma'lumotlar

Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi, ming so'm (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)



Ushbu xizmatlar hajmi ko'rsatkichi hududlar o'rtasida Buxoro shahrida 14 519,3 ming so'mdan Shofirkon tumanida 1 833,3 ming so'm-gacha oralig'ida bo'ladi.

Ushbu mintaqada aholi jon boshiga xizmatlar hajmi ko'rsatkichi nisbatan pastligi bu hududda aholi sonining yuqori ko'rsatkichlariga bog'liqligidir.

Taqqoslash uchun: Qorovulbozor tumanida o'rtacha doimiy aholi soni (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida - 18,4 ming kishini tashkil etdi) uncha ko'p bo'lmasada, biroq aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi nisbatan yuqori. Ko'rib chiqilayotgan davrda u 7 175,6 ming so'mni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumдорligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

Xizmatlar sohasida iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

Dastlabki ma'lumotlar

**2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra,
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

Xizmatlar sohasida
faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar
soni - 17 748 birlikda

O'tgan yilning mos
davriga nisbatan
o'sish sur'atlari -
118,6 %

O'tgan yilning mos
davriga nisbatan
ularning sonini o'sishi -
2 777 birlikda

Ularning umumiyligi
sonidagi ulushi -
63,8 %

**2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**




2020- yilning
1- dekabr holatiga
ko'ra, xizmatlar
sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan kor-
xona va tash-
kilotlarning ulushi -
63,8 %, sanoat -
15,5 %, qishloq,
o'rmon va baliqchilik
xo'jaligi sohasi
10,9 % ga yetdi.

Qurilish sohasida 9,8 % korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatadi.

2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni (41,6 %) egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 12,6 % ni tashkil etdi.



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 8,7 % ga yetdi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 3,7 % ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 1,6 % ga teng bo'ldi.

Ma'lumot uchun: 2019- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 15,0 mingta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiylar tarkibida savdo xizmatlari – 37,7 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 12,1 %, tashish va saqlash - 8,9 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 3,8 %, axborot va aloqa - 1,6 %, hamda boshqa turdag'i xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar – 35,9 % ni tashkil etgan.

**2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonining ko'payishi va o'sishi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



O'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2,8 mingtaga ko'paydi.

Ma'lumot uchun: 2019- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, ularning soni 3,3 mingtaga ko'paygan.

Kuzatilayotgan davrning o'tgan yilga nisbatan savdo faoliyati sohasidagi yuqori o'sishi – 30,9 % ekanligi aniqlandi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 1,7 mingtaga ko'paydi va 7,4 mingtaga yetdi.



Shuningdek, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq faoliyatda ham o'sish kuzatildi – 23,6 %. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 0,4 mingtaga ko'paydi va 2,2 mingtani tashkil etdi.

**2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'r-satayotgan korxona va tashkilotlar umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi 81,4 % ga to'g'ri keladi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, ularning ulushi 77,5 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining o'sishi, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

**2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida
faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik
subyektlari to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2 847 taga ko'paydi.

Natijada, ularning soni 14 454 tani tashkil etdi va o'sishi esa 24,5 % ga oshdi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiyligining sonida xizmatlar sohasida band bo'lganlarning ulushi 59,2 % ga yetdi.



Dastlabki ma'lumotlar

Taqqoslash uchun: o'tgan yilning shu davrida xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik korxona va tashkilotlar sonining ulushi 58,8 % ekvivalentida qayd etildi.

Respublikada xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining o'sib borayotgan to'lov qobiliyati va imtiyozlariga, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, ayniqsa zamонави xizmat turlariga bo'lgan iste'molchilar talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog'liqdir.

Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan, xizmatlarni ishlab chiqarish hajmiga uy xo'jaliklari daromadlari va imtiyozlar, xizmatlarga tariflar, boshqa tomondan - investitsiyalar, soliq, pul-kredit va davlat siyosati, ilmiy-texnik siyosat, shuningdek, kichik biznesning rivojlanishi kabi omillar ta'sir qiladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo`limi.

Tel.: 65-223-79-41